



Ibodulla ERGASHEV,

O'zbekiston Milliy universiteti professori, s.f.d

E-mail:ibodullaergashev@mail.ru

Azamatjon XUDAYNAZAROV,

O'zbekiston Milliy universiteti Siyosatshunoslik kafedrasи tadqiqotchisi.

CHDPU professori, s.f.d. N. Nazarov tarqizi asosida

THE ROLE OF YOUTH PARLIAMENTS IN INCREASING YOUTH PARTICIPATION (INTERNATIONAL AND UZBEKISTAN EXAMPLES)

Annotation

The article examines the role of youth parliaments in increasing the participation of young people in political processes. Also, the article describes the practical experiences of the youth parliaments in the world and the practical measures taken, as well as the practical work carried out by the youth parliament in Uzbekistan. Some problems in the activity of youth parliaments in increasing the participation of young people in political processes, conclusions, suggestions and recommendations for further improvement of its activity are given and socio-political analysis is made.

Key words: Youth, youth participation, youth problems, political processes, strategic subject, participation in political processes, youth parliament, votelection.

РОЛЬ МОЛОДЕЖНЫХ ПАРЛАМЕНТОВ В ПОВЫШЕНИИ УЧАСТИЯ МОЛОДЕЖИ (МЕЖДУНАРОДНЫЕ И УЗБЕКИСТАНСКИЕ ПРИМЕРЫ)

Аннотация

В статье рассматривается роль молодежных парламентов в повышении участия молодежи в политических процессах. Также в статье описан практический опыт молодежных парламентов мира и принятые практические меры, а также практическая работа, проводимая молодежным парламентом в Узбекистане. Приведены некоторые проблемы деятельности молодежных парламентов по повышению участия молодежи в политических процессах, сделаны выводы, предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию их деятельности и сделан социально-политический анализ.

Ключевые слова: Молодежь, молодежное участие, молодежные проблемы, политические процессы, стратегический субъект, участие в политических процессах, молодежный парламент, голосование, выборы.

YOSHLAR ISHTIROKINI OSHIRISHDA YOSHLAR PARLEMENTLARINING O'RNI (XALQARO VA O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini oshirishda yoshlar parlamentlarni o'rni o'rganilgan. Shuningdek, maqolada dunyodagi yoshlar parlamentlarining amaliy tajribalari hamda olib borilgan amaliy chora-tadbirlari, shu o'rinda O'zbekistondagi yoshlar parlamenti tomonidan amalga oshirilgan amaliy ishlar yoritilgan. Yoshlar parlamentlarining yoshlarni siyosiy jarayonlarda ishtirokini oshirishdagi faoliyatida ayrim muammolari, uning faoliyatini yanada takomillashtirish uchun xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan hamda ijtimoiy-siyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, yoshlar ishtiroki, yoshlar muammolari, siyosiy jarayonlar, strategik subyekt, siyosiy jarayonlarda ishtiroki, yoshlar parlamenti, ovoz berish, saylov.

Kirish. Yoshlar ishtiroki – bu mamlakatning ijtimoiy hayot sohalari yoshlarning bevosita faoliyatiga aytish mumkin. Har bir mamlakatning strategik subyekti bo'lgan yoshlarini siyosiy jarayonlarda ishtirokini oshirish orgali mamlakat taraqqiyotida tub burilish qildigan, kreativ, novator, erkin hamda mustaqil fikrلaydigan, siyosiy-huquqiy madaniyatli, vatanparvar va o'z xalqini o'ylyadigan davlat xizmatchisi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarini puxta egallagan yuksak potensial yoshlarni tarbiyalash mumkin. Shu o'rinda, davlat barbarlari yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirokiga e'tiborsizlik qilinsa, davlat hokimiyyati boshqaruviga siyosiy ishonchszizlik, davlat idora-tashkilotlari rahbarlarining yoshi qarishi (yoshi katta rahbarlarning ko'payishi), saylovlarda tokenistik (ramziy) ishtirok etishi, siyosiy o'zgarishlarga loqaydlik bilan qarash, siyosiy radikal oqimlarga qo'shilishga moyillik xususiyatlari shakllanishi, davlatning qonunchiligiga ishonchszizligi kabi holatlardan yuzaga kelishi mumkin. Sunday salbiy holatlarni oldimi olish, shuningdek, yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga qiziqtrish hamda jalb qilish, qabul qilinayotgan qonunlarga ovoz bera olish imkoniyatlarini kengaytirishda yoshlar parlamentlarining roli beqiyosdir.

Shu o'rinda yoshlar parlamenti tushunchasiga ilmiy ta'riflar berib ketish o'rinnlidir. Yoshlar parlamenti - bu yoshlarning hayoti va kelajagi to'g'risida qaror qabul qilishda faol ishtirokini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan tashkilot. Bu yoshlar ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash, ekologiya va yoshlar siyosatining boshqa jihatlari bilan bog'liq muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishi, fikr almashishi va yechimlarni taklif qilishi mumkin bo'lgan

forumni taqdim etadi[1]. Rossiyalik politolog Aleksey Kochetkov esa "Yoshlar parlamenti bugungi kunda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni davlat hokimiyyati organlari huzurida yoki ular tomonidan belgilangan tartibda, shuningdek, boshqa jamoatchilik tomonidan maxsus jamoat maslahat va radioeshittirish tuzilmasini yaratish va faoliyat yuritishga asoslangan maxsus ijtimoiy guruh sifatida belgilaydi" degan fikrlarini keltirish mumkin[2]. Yoshlar parlamenti tushunchasiga keltirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagicha fikr bildirish mumkin: Yoshlar parlamenti - yoshlarning hayoti va kelajagi to'g'risida qaror qabul qilishda faol ishtirokini ta'minlovchi, o'z muammolari va g'oyalarini hukumat vakillari bilan muhokama qilish imkoniyatini beruvchi hamda siyosiy jarayonlarda yoshlarning manfaatlari va g'oyalarini ifodalashga mo'ljallangan ko'nikma hamda malakasini shakllantiruvchi institut.

Asosiy qism. Dunyoga nazar soladigan bo'lsak, ko'pgina parlamentlarda fuqarolik jamiyat guruhlari va tarmoqlari bilan aloqalarni o'rnatish vazifasi yuklangan axborot xizmatlari mavjud. Hamkorlikning natijasi yaxshiligi - yoshlarning ovozlari qaror qabul qiluvchilar tomonidan eshitilganda va inobatga olinganda, yoshlarning siyosiy ishtiroki haqiqiy muammolarni hal qilishda yordam bergandadir. Shunda yoshlarning fikrlari va qarashlari haqiqiy o'zgarishlarga olib keladi.

Shotlandiya yoshlar parlamenti (SYP) 1999 yilda tashkil etilgan bo'lib, yoshlar tomonidan boshqariladigan tashkilotdir. U Shotlandiya parlamenti va Shotlandiya hukumatidan mustaqil hisoblanadi, lekin hukumat tomonidan uch yil davomida moliyalashtiriladi. Shotlandiya yoshlar parlamentiga 14 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 160 a'zo kiradi. Saylov mahalliy kengashlar

tomonidan Shotlandiya yoshlar parlamenti xodimlari rahnamoligida tashkil etiladi. Shotlandiyada yoshlarni mahalliy kengashlar va yoshlar tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash mayjud. Yilda bir marta Shotlandiya hukumatি Shotlandiya yoshlar parlamenti tomonidan erishilgan yutuqlarini muhokama qilish uchun uchrashuv bo'lib o'tadi. Yoshlar parlamenti Shotlandiyada yashovchi yoshlarning huquqlarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro hurmat qilish va mamlakatdagi qaror qabul qiluvchilar tomonidan hisobga olishga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi haqidagi misollar keltirishadi. Shunday qilib, Shotlandiya yoshlar parlamentining afzalliklari nafaqat yoshlar va ular tajribasidan olingan narsalar, balki Shotlandiya parlamenti va Shotlandiya hukumatи tomonidan ijobiy siyosati shakllantirishga yordam berish uchun manfaatdor yoshlarning tayyor guruhiga murojaat qilishlari mumkinligidir[3].

Uels Yoshlar Parlamenti (WYP) (Uels: Senedd Ieuencit Cymru (SIC)) 2018-yilda Senedd (o'sha paytda Uels Milliy Assambleyası) tomonidan tashkil etilgan. Uning maqsadi yoshlarga qaror qabul qilish imkoniyatini berish va ularga Uels siyosatida ovoz berishdir. Uels Yoshlar Parlamenti 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan oltmissiz naifar a'zodan iborat. Senedd saylov okruglari bo'yicha elektron saylovda 40 naifar a'zo, yana yigirma naifar a'zo hamkor tashkilotlar tomonidan saylandi. Parlamentning barcha 60 ta a'zosi o'zlarining ikki yillik vakolatlari davomida jami uch marta milliy miqyosda yig'ilishiadi. Parlament Kardiff ko'rfaqidagi Senedd binosida yig'iladi. Bundan tashqari, a'zolar ish dasturini davom ettirish uchun mintaqaviy yig'ilishlarda uchrashadilar; Uelsning to'rtta saylov hududida - O'rta va G'arbiy Uels, Shimoliy Uels, Janubi-Sharqi Uels va Janub-G'arbiy Uelsda o'tkaziladi. Ikki yil davomida uchta mintaqaviy tadbir ham o'tkaziladi, ularda butun Uelsdan kelgan yoshlar o'zlarining saylangan vakillari bilan uchrashishlari va ularning fikrlarini eshitishlari mumkin[4].

Biyuk Britaniya Yoshlar Parlamenti 1999-yilda yoshlarga, jumladan, marginallashgan jamoalar vakillariga parlament jarayoniga ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratish maqsadida tashkil etilgan. Milliy yoshlar agentligi biyuk Britaniyaning yoshlar parlamentini boshqaradi va dasturni taqdim yetish uchun hamkor tashkilotlar bilan ishlaydi. Britaniya Yoshlar parlamenti har ikki yilda bir marta saylanadi. Britaniya yoshlar parlamentining vakolat muddati 1 apreldan boshlanadi va 31 martda tugaydi. Saylovlar Angliya va Uelsdagi mahalliy hokimiyat organlariga (yoki mahalliy hokimiyat nomidan yoki uning o'rniiga ishlaydigan organlarga), Shotlandiyadagi Shotlandiya yoshlar parlamenti va to'g'ridan-to'g'ri Shimoliy Irlandiyadagi Milliy yoshlar agentligi tomonidan boshqariladi. Saylanganidan so'ng, yoshlar parlamenti a'zolari qaror qabul qiluvchilar bilan uchrashadilar, tadbirlar tashkil qiladilar, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boradilar, nutq so'zlaydilar, munozaralar o'tkazadilar va qaror qabul qiluvchilar tomonidan yoshlarning fikrlari tinglanishini ta'minlaydilar[5].

Osiyo mamlakatlariga nazar soladigan bo'lsak, masalan, Pokiston Islom Respublikasi yoshlarning liderlik qobiliyatlar va tanqidiy fikrashni shakkantirish, siyosiy bilimlarni rivojlantrish hamda Pokiston yoshlarini demokratik qarorlar qabul qilish jarayoniga mazmuniylar qilish uchun PILDAT 2007 yilda birlinchi Pokiston Yoshlar Parlamenti (PPP) ishga tushirdi. O'shandan beri Yoshlar Parlamenti Pokistonning barcha viloyatlari va hududlaridan 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan 1000 ga yaqin yosh pokistonliklarning yetakchilik qobiliyatini yaratdi. Pokiston yoshlar parlamentining bir qator bitiruvchilari hozirda siyosat, davlat, davlat xizmati, huquq, biznes va korporativ sektorlarda rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda. Pokiston yoshlar parlamenti yoshlar bugungi va ertangi kunning global, mintaqaviy va mahalliy muammolarini tushunish vakolatiga ega bo'lgan hamda keyingi avlod yetakchilari sifatida ularni hal qilish uchun ilhomlantirgan holda, Yoshlar parlamenti orqali faol fuqaro bo'lish va muvaffaqiyatli martaba qurish yo'llarini o'rgatadi[6].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlariga nazar soladigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining 2001 yil 4 iyulidan 1742-III-soni qarori bilan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat Dumasi huzurida jamoat yoshlar palatasi (2011-yilda Yoshlar parlamenti deb o'zgartirilgan) tashkil etildi. Yoshlar parlamenti Davlat Dumasi apparati faoliyatni huquqiy, tashkiliy, hujjalashtirish, tahliliy-axborot, moliyaviy, moddiy-teknik qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organdir. Yoshlar parlamenti Rossiya Federatsiyasidagi yoshlarning muammolarini o'rganish, ularga davlat hokimiyyati organlarining o'z vaqtida javob berishlari, davlat dumasining yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonuniy tartibga solish sohasidagi faoliyatiga ko'maklashish, Rossiya Federatsiyasida yoshlar muammolarini hal qilish bo'yicha tavsiyalar

tayyorlash maqsadida tuzilgan. Davlat Dumasi huzuridagi Yoshlar parlamenti yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqadi, hokimiyat va yosh fuqarolarning bir-birini yaxshiroq tushunishiga yordam beradi, siyosatni o'rgatadi[7].

Shu o'rinda, Belarus Respublikasi Milliy Majlisi huzuridagi yoshlar kengashi (parlament) 2020-yil iyul oyida tashkil etilgan va o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi maslahat organi hisoblanadi. Yoshlar parlamentining maqsadi Belarus Respublikasi Milliy Majlisining yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonuniy tartibga solish sohasidagi faoliyatiga ko'maklashishdir. Yoshlar parlamenti tarkibiga Belarus Respublikasi fuqarolari bo'lgan 18 yoshdan 31 yoshgacha bo'lgan yoshlar vakillari, odatda yoshlar parlamentarizmi organlari rahbarlari (vakillari) orasidan kiritiladi. Viloyat bo'y sunuvnidagi har bir tuman va shahardan bazaviy hududiy darajadagi deputatlarning tegishli mahalliy Kengashlari prezidiumlari yoshlar parlamenti tarkibiga bittadan nomzodni topshiradilar. Yoshlar parlamenti tarkibiga nomzodni delegatsiya qilish to'g'risidagi qaror tegishli mahalliy deputatlar Kengashlari prezidiumlari majlislarida nomzodlar muhokama qilingandan so'ng qabul qilinadi. Yoshlar parlamentining vakolat muddati ikki yil. Yoshlar parlamentining faoliyati majlislar shaklida, prezidium, komissiyalar, yoshlar parlamentining boshqa organlari faoliyati, shuningdek, yoshlar parlamenti a'zolarining Belarus Respublikasi milliy Majlisi Vakillar palatasi hamda Respublika Kengashining ochiq majlislarida, ularning doimiy komissiyalarida va boshqa shakllarda yoshlar parlamentining Nizom va reglamenti muvofiq amalga oshiriladi[8].

O'zbekistonga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdag'i "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliши bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida PF-5953-sonli Farmoni[9] ga asosan Davlat dasturining I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'naliшлиari bandining ijrosini ta'minlash maqsadida Oly Majlis Qonunchilik palatasi huzurida hamda Senati huzurida Yoshlar parlamentini tashkil etildi. Yoshlar parlamentining maqsadi yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jaib qilish va qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar orasida keng targ'ib qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirishda ishtiroy etishdan iborat[10].

Yoshlar parlamenti a'zolari 18-30 yosh bo'lgan fuqarolar orasidan gender tenglik ta'minlangan va jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni ham jaib qilgan holda jami 100 naifar etib shakllantiriladi. Bunda xalq deputatlari viloyat, tuman (shahar) Kengashlariga saylangan yoshlar vakillaridan har bir hududdan teng miqdordan 6 nafridan jami 84 naifar va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tavsiyasiga ko'ra 10 naifar hamda Senatning Yoshlar madaniyat va sport masalalari qo'mitasи tavsiyasiga binoan 6 naifar yoshlar Senat Kengashi qarori bilan Yoshlar parlamenti a'zoligiga tasdiqlanadi. Yoshlar parlamenti tomonidan 2023-yilda Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilgan qonun loyihalardan 21 tasi yuzasidan 455 ta taklif tayyorlangan. Shuningdek, Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari, nazorat-tahsil tadbirleri va saylovchilar bilan muloqotlari jarayonida Yoshlar parlamenti a'zolarining 61 marotaba bevosita ishtiroy etishi ta'minlangan[11].

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, yoshlar parlamenti davlat va yoshlar o'tasida o'zaro munosabatga kirishdan ko'priк vazifasini bajaruvchi tizimdir. Shuningdek, yoshlarning siyosiy va huquqiy sohada egallagan bilim hamda ko'nikmalari, hayotiy pozitsiyalarini aniq belgilab berib, davlat parlamenti kelajagidagi chinakam vorisiga aylanishda siyosiy muhit yaratib beradi. Bugungi dunyoda bo'layotgan siyosiy o'zgarishlar yoshlarning siyosiy jarayonlarga bo'lgan qiziqishi, siyosiy ishtiroy oshib bormoqda. Lekin yoshlar o'tasida siyosiy jarayonlarda faol ishtiroy etishida siyosiy institutlarning olib borayotgan faoliyati unchalik katta ta'sir qilmayapti. Chunki siyosiy institutlar faqat davlat topshiriqlarini bajarish, qilgan ishlari faqat hisobot uchun olib borilganligi, yoshlar muammolariga yechim topish va ularni qo'llab-quvvatlashga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi holatlari yuz bormoqda. Shuning uchun yoshlarda siyosiy institutlarga ishonchi past darajada bo'lmoqda. Yoshlar parlamentining maqsad va vazifalarini konkretlashtirish kerak. Masalan, O'zbekistonda yoshlar muammolarini o'rganadigan, tashabbuslarini olib chiqdigan, takliflarni o'rganadigan bir nechta institutlar mayjud. Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti,

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi kabi tashkilotlarni maqsadlari bir-biriga yaqin bo'lib qolgan. Yoshlar muammolarini o'rganish va tahlil qilishni yagona tashkilot bajarishi kerak. Tashkilotlar ko'p bo'lsa, bir biriga uning-buning vazifasi deb, muammolar muammoligicha qolaveradi.

Shu o'rinda yoshlar parlamentlarining yoshlarni siyosiy jarayonlarda ishtirokini oshirishdagi faoliyatida ayrim muammolarini sanab o'tish o'rinnlidir. birinchidan, Yoshlar parlamenti faqat hukumatning faoliyatiga kirmaydigan topshirig'ini amalga oshirishga o'rganib qolganligi, ikkinchidan, parlamentning qonun loyihalari muhokamalarida nomiga ishtirok etishi hamda ularning qarorlari rasmiy kuchga ega emasligi, uchinchidan, parlamentning a'zolari o'zi istiqomat qiladigan hudud yoshlariga tegishli muammolarini o'rganish, sabablarni aniqlash, uni yoshlar o'rtasida muhokama qilishga mas'uliyat bilan yondashmayotganligi, to'rtinchidan, yoshlarning manfaatlarni himoya qilish, ularning muammolarini parlament minbariga olib chiqish, qonun ijodkorligida yoshlarning ishtirokini ta'minlash bo'yicha olib borayotgan targ'ibotlari hukumat oldida faqat hisobot uchun yoki nomigina o'tkazilishi, beshinchidan, ayrim yoshlar parlament faoliyatini to'g'risida ma'lumotga ega emasligi.

Yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirokini oshirishda yoshlar parlamentlarni faoliyatini yanada takomillashtirish uchun

quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin: birinchidan, yoshlar va davlat o'rtasida siyosiy jarayonlarda o'zaro munosabatga kirishishda imkoniyatlar yaratib beradigan strategik siyosiy institut sifatidagi faoliyatini takomillashtirish, ikkinchidan, parlamentga faqat iqtidorli, intellektual salohiyatlari yoshlarni emas, talablardan kelib chiqqan holda uyushmagan yoshlarni jalg qilish to'g'risida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, uchinchidan, mamlakatimizda yoshlarni huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish, davlat boshqaruvi va siyosat tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydigan, siyosiy jarayonlarda konstruktiv ishtirok etishi samaradorligini oshiradigan davlat ahamiyatiga ega qonun yoki konsepsiya ishlab chiqish, to'rtinchidan, mamlakatimizning barcha hududidagi yoshlarning siyosiy va huquqiy jarayonlarga bo'lgan munosabati, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladigan sohalar ya'ni ta'lim, bandlik, ishlab chiqarish, saylov kabi sohalaragi muammolarini sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali aniqlash va yechimlar ishlab chiqish, beshinchidan, yoshlar parlamenti a'zolari yoshlar muammolarini yashirmsandan, boricha ko'tarib chiqadigan, yoshlar masalasidagi qonun loyihalarga erkin, mustaqil fikrini va taklifini kirita oladigan, ayrim rahbarlar yoki deputatlardan hech qanday bosimsiz namoyon qila olish imkoniyatini mustahkamlashdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Elektron manba: <https://adolat.uz/ru/nukta-nazar/mnenie-molodezhnyj-parlament-platforma-dlya-razvitiya-molodezhi-v-uzbekistane> (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
2. Кочетков А.В. Молодежный парламентаризм в России: понятие и правовой статус / А.В. Кочетков // «Черные дыры» в российском законодательстве. – 2005. – № 1. – С. 51-57.
3. Elektron manba: <https://gpgovernance.net/wp-content/uploads/2021/04/GTP-13-Youth-Uzbek.pdf> (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
4. Elektron manba: https://en.wikipedia.org/wiki/Welsh_Youth_Parliament (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
5. Elektron manba: <https://nya.org.uk/ukyp/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
6. Elektron manba: <https://youthparliament.pk/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
7. Elektron manba: https://ru.wikipedia.org/wik/Молодёжный_парламент_при_Государственной_думе (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
8. Elektron manba: <https://sovrep.gov.by/ru/mp-ru/> (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagи PF-5953-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4751561>
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining 2022-yil 12-dekabrdagi 2749-IV-son Qarori. <https://lex.uz/en/docs/-6358558>
11. Elektron manba: <https://parliament.gov.uz/news/yoshlar-parlamentining-otgan-yilgi-faoliyati-qanday-boldi> (Murojaat qilingan sana: 01.06.24).
12. Urinbaevich K. A. YOUTH OF UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF CHANGES IN POLITICAL PROCESSES //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 1455-1464.
13. Urinbaevich K. A. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education //Middle East Journal of Applied Science & Technology. – 2022. – Т. 5. – №. 1. – С. 33-37.
14. Худайназаров А. У. Роль реформ в повышении активности молодежи узбекистана в социально-политических процессах //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2 (83). – С. 661-665.
15. Abdurakhmonovich S. B., Urinbaevich K. A. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – Т. 23. – С. 222.
16. Ergashev Ibdulla, Abdullayev Barxayotjon Bo'riyevich, Xudaynazarov Azamatjon O'rribayevich & Berdiyeva Muattar Ibodullayevna. Transformation of Youth and the System of Values. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS) Volume 6, Issue 4, Pages 24-32, October-December 2022.
17. O'rribayevich X. A. Yangi O'zbekiston siyosiy jarayonlarida yoshlar ishtirokining tuzilmaviy-funksional tahlili //Conferencea. – 2023. – С. 46-51.